



**Journal of**  
**NATURAL SCIENCE**

<http://natscience.jspi.uz>

№5/3(2021)

biology chemistry geography



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

*dotsenti, kimyo fanlari nomzodi*

**DAMINOV G‘ULOM NAZIRQULOVICH**

*tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan*

onlayn konferensiya materiallari



**Jizzax-2021**

<b><u>ТАХРИР ҲАЙЪАТИ</u></b>	<b><u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u></b>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Беларусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	<ol style="list-style-type: none"><li>9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.</li><li>11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д.,проф</li><li>12. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.</li><li>13. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>14. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>15. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li></ol>
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>16. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>17. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>18. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>19. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>20. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>21. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li><li>22. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

## JIZZAX VILOYATINI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING AHAMIYATI

*Mirzayeva Aziza Zokir qizi-o'qituvchi*

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

**Annotatsiya:** Maqola Jizzax viloyati turistik salohiyati va imkoniyatlarini keng o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda viloyatning ekoturistik imkoniyatlaridan kengroq foydalanish masalalari, sayyohlarni keng jalb etish bo'yicha istiqbolli loyihalar haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** turistik marshurtlar, ekstremal va tog' turizmi, ekoturizm, gastronomik turizm, ziyorat turizmi, tibbiy turizm.

Turizm millatlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan, turli davrlarda, turli xildagi xalqlarning madaniyati, dini, e'tiqodi, tarixi, tabiatini o'rganadigan, shuningdek insonlarning hordiq chiqarib davolanishlarini ta'minlabgina qolmay, balki iqtisodiyotning o'sish darajasini tezlashtirishga xizmat qiladigan tarmoq sifatida shakllanib bormoqda. Jahonda turizmning barcha turlari rivojlanishi bilan bir qatorda ba'zi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining asosini tashkil qiladi.

Turizm boshqa sohalarga nisbatan tez taraqqiy etadigan tarmoqdir, chunki bu soha mamlakatimiz uchun unchalik katta investitsiyani talab qilmasdan rivojlanishi mumkin bo'lgan sohadir. Boshqa sohalari, jumladan havo, temir yo'l, avtomobil transporti, ovqatlanish va savdo shaxobchalari, mehmonxonalar rivoj topsa, o'sha joyda turistik obektlar mavjud bo'lsa, bemalol turizmni rivojlantirish mumkin.

Turizm sohasidagi mutaxassislarning fikricha, u XXI asrda dunyo miqyosida eng ustuvor fond keltiruvchi sohaga aylanadi. Hozir u dunyo bo'yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi. Bu soha dunyo sanoati va qishloq, xo'jaligidan o'zib ketdilar.

Turizmning tez rivojlanishiga yana bir sabab, u yuqori darajadagi katta ilmiy tadqiqot xarajatini (naukoyomkiy) va quvvatni ko'p sarf qiladigan (energoyomkiy) texnologiyani talab qilmaydi. Biroq, turizm boshqa sohalarni rivojlantirishni taqozo qiladi. Shu tufayli ushbu soha bilan ko'pgina xizmat ko'rsatuvchi va servisni tashkil etish sohalari bir-biri bilan uzviy bog'liq ravishda rivoj topmog'i lozim.

Turizmning rivojlanishiga nafaqat daromad keltiruvchi iqtisodiy, balki katta ijtimoiy soha deb ham qarash lozim. Agar xalqaro turizm o'z rivojini topsa xalqlar o'rtasidagi madaniy va ma'rifiy aloqalarning mustahkamlanishiga, turli millatlarning do'stlashishiga, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishiga, oxir-oqibatda dunyoda tinchlikning qaror topishiga ham muhim omil bo'ladi.

Bunday muammolar O'zbekistonda ham mavjud. Agar turistlar tarixiy obidalarni tomosha qilish bilan birga yoz paytlarida cho'milish va sof havoda sayr

qilishni maqsad qilib qo‘yasa, birinchi yo‘nalish bo‘yicha tegishli obidalarni, turistik obektlarni topishimiz mumkin. Ammo chet mamlakatlardan kelib bemaolol cho‘miladigan suv havzalarimiz. miriqib dam oladigan, ekologik jihatdan to‘liq talabga javob beradigan bog‘, sun‘iy o‘rmonlarimiz yetarli emas. Albatta, toza havosi, ekologik jihatdan barcha talablarga javob beradigan betakror tabiati va iqlimiga ega bo‘lgan tog‘larimiz bor. Ammo ular turistik obektlar qatoriga kiritilmagan va turistik marshrutda o‘z ifodasini topmagan. Buning ustiga tog‘larda turistlarga servis xizmati deyarli tashkil qilinmagan. Bulardan ko‘rinib turibdiki, ekoturizmni rivojlantirish uchun o‘zimizda hali ancha ishlarni amalga oshirishimiz lozim ekan.

Jizzax viloyati O‘zbekiston Respublikasining markaziy qismida joylashgan. Viloyat 1973 yil 28 dekabrda tashkil etilgan. Viloyatning tabiati o‘ziga xos bo‘lib, relyefi tog‘lik, qir va tekisliklardan iborat. Jizzax O‘rta Osiyodan o‘tgan bir necha qadimiy karvon yo‘lining tutashgan joyida vujudga kelgan. Yozma manbalarda ilk bor arab geograf olimlari va sayyohlaridan Ibn Huvkal va muqaddasiylarning asarlarida Ustrushonaning Faknon viloyatidagi shahar deb tilga olinadi.

Mamlakatimiz markaziy qismida joylashgan, respublikamiz shaharlarini va qo‘shni davlatlarni bog‘lovchi avtomobil hamda temir yo‘l bo‘yida joylashgan Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta.

Viloyatda davlat muhofazasiga olingan 372 ta madaniy meros obektlari tarixiy-arxeologik manzil, shu jumladan, 42 ta tarixiy obida va ziyoratgoh, 267 ta arxeologik yodgorlik, 63 tasi monumental yodgorlik mavjud. “Nurota” va “Zomin” davlat qo‘riqxonalari, “Zomin” xalq bog‘i, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi, 9 ta o‘rmon xo‘jaligi va Qizilqum cho‘li ekoturizm ishqibozlari uchun qiziqarli manzillar hisoblanadi. Hududda 200 dan ziyod ekoturistik obektlar, 50 dan ziyod noyob hayvon va qush turlari, 1 mingdan ziyod o‘simlik turlari borligi ham sayyohlarni qiziqtirmasdan qolmaydi.

Viloyat hududda ming yillardan beri aziz tutib kelingan “Temir darvoza”, “Sa‘d ibn Abu Vaqqos”, “Parpi ota”, “Xo‘jamushkent ota”, “Novqa ota”, “O‘smat ota”, “Sayid Mir Xalililloh ota”, “Xo‘jabog‘bon ota” kabi ko‘plab mo‘tabar ziyorat manzillari va qadamjolar borki, bugungi mustaqillik yillari sharofatidan yanada obod va ko‘rkam manzillarga aylandi, o‘z salobati bilan yurtimiz saodatiga shukuh bag‘ishlab turibdi. Bunday tarixiy maskanlar, muqaddas qadamjolar ziyorat turizimini rivojlantirishga keng imkoniyatlar bor ekanligidan dalolat beradi.

Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan turizmni rivojlantirishga berilayotgan katta e‘tibor tufayli sayyohlarni joylashtirish vositalari, ya‘ni mehmonxonalar, mehmon uylari va boshqa turistik obektlar barpo etishga katta e‘tibor qaratib kelinadi.

2018 yilda viloyatda 2 ming 200 o‘ringa ega 46 ta joylashtirish vositasi faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2019 yil yakunida ularning soni 91 taga etdi. Ayni paytda viloyatda bir vaqtning o‘zida 2 ming 500 dan ortiq mehmonga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan 33 ta mehmonxona 45 ta mehmon uylari 13 ta sihatgoh, 2 ta kemping va o‘tov oromgox mavjud. Shuningdek, 5 nafar turoperatorlik subektlari, 4 ta turizm axborot markazlari tashkil etilgan.

Biroq, bu ko‘rsatkich bundan ham ko‘proq bo‘lishi mumkin edi. Viloyatning turistik imkoniyatidan to‘liq foydalanilmoqda, deb bo‘lmaydi.

Prezidentimizning 2020 yil 19 iyundagi “Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat’iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida Jizzax viloyatining turistik salohiyatini oshirish bo‘yicha qator tadbirlar belgilangan. Bu nafaqat hudud ekoturizimini, balki iqtisodiyotimizni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega hujjat bo‘ldi.

Qarorda Jizzax viloyati hokimligi bilan birgalikda Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi hududida turistik zonani yaratish va rivojlantirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, yangi “Orom qirg‘og‘i” (“Leisure Coast”) turistik zonasida suvda dam olish turlari va plyaj turizmini rivojlantirish, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimiga yo‘lovchilarni tashish uchun temir yo‘llarni yotqizish qiymatining dastlabki hisob-kitoblarini qilish va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, doimiy avtobus qatnovlarini yo‘lga qo‘yish, tadbirkorlik subektlarini jalb qilgan holda turizm va unga yondosh infratuzilmani rivojlantirish shubhasiz viloyatning sayyohlik jazibadorligini yanada oshiradi.

Aydar-Arnasoy ko‘llari ekoturistik yo‘nalishiga xorijlik investorlarni jalb etish bo‘yicha ishlarni davom etayotir. Prezidentimiz qarorida ushbu ekoturistik maskanni rivojlantirish bo‘yicha belgilab berilgan vazifalar amalga oshirilishi hudud iqtisodiyotida muhim hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Davlatimiz rahbarining maskur qarorida hududimizning yana bir muhim sayyohlik yo‘nalishiga – Zomin tumanida amalga oshiriladigan ishlarga alohida e’tibor qaratilgan. Qarorda belgilab berilgan Zomin tumanida umum mavsumiy, qishki va yozgi dam olish maskanlarini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib amalga oshirilishi hududdagi imkoniyatlarni yanada kengroq ishga solishga xizmat qiladi.

Qarorda ushbu sayyohlik hududining alohida qayd etilishi bejiz emas. Tumanning xushmanzara, xushhavo tabiati – bebaho boylikdir. Ammo bu boylikdan hozirgacha imkoniyat darajasida foydalanmayotganimiz ham ma’lum. Jumladan, Zominda dam olish mavsumining o‘ta qisqaligi asosiy muammolardan biri bo‘lib qoladi.

Shuning uchun Prezidentimiz qarorida aynan shu masalaga – hududda umum mavsumiy, qishki va yozgi dam olish maskanlarini tashkil etishga e’tibor qaratilib, imkoniyatlardan yanada kengroq foydalanish yo‘llari belgilab berilgani turizmni rivojlantirishda yana bir muhim qadam bo‘ldi.

Pandemiya davrida eng ko‘p zarar ko‘rgan soha sayyohlik xizmati bo‘ldi. Dunyo bo‘ylab turistlarning tashrif buyurishi karantin tufayli to‘xtab qolishi, ehtiyot choralari hali hamon davom ettirilayotgani bizni hayotning bu sinovlarini izlanuvchanlik, ishbilarmonlik, ayni paytda ogohlik va ehtiyotkorlikni unutmagan holda ishlarimizni qaytadan yo‘lga qo‘yishni taqoza etadi. Prezidentimizning mazkur qarori ham aynan shu talablar asosida ishlarimizni qayta yo‘lga qo‘yishda muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2016 yil 2 dekabr, PF-4861-son. //www.lex.uz
2. Mamatqulov X.M., Bektemirov A.B., Tuxliev I.S., Norchaev A.N. Xalqaro turizm. Darslik. T. 2019. 314 bet.
3. Mirzaev M.A., Alieva M.T. “Turizm asoslari”. Darslik. Toshkent. 2017y. 313 bet.
4. Mirzayeva A.Z Jizzax viloyatining ekoturistik resurslari. Maqola. Nur Sulton. Qozog‘iston. 2020.
5. Mirzaeva, A. (2021). MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN UZBEKISTAN. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY (2767-472X), 2(06), 34-38.
6. Mirzayeva A. Jizzax viloyatida ekologik turizmni rivojlantirish istiqbolini bashoratlash. Ta’lim fidoyilari. Respublika ilmiy-uslubiy jurnal.2021
7. A.Mirzayeva. Jizzax viloyatida ekoturizmni rivojlantirishning ayrim muammolari. O‘zbekiston geografiya jamiyati.10-syezdi materiallari.2019
8. Mirzayeva A. Jizzax viloyatida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari. Geografiya kelajakka nazar. Nukus 2021
9. Toshboyev, Zafar. "МИРЗАЧЎЛ ВОҲА ЛАНДШАФТЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ: МИРЗАЧЎЛ ВОҲА ЛАНДШАФТЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ." *Журнал инновации в начальном образовании* Архив№ 1 (2021).
10. Рахматуллаев, А., & Баратов, Х. (2020). Ғўбдин тоғи ландшафтларида чўлланиш жараёнини тажриба участкалари ёрдамида ўрганиш. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
11. Xolmirzayev jumanazar, Abdazov, J.. J.(2020). Morphological features of buried soils of loess formations of the prytashkent region of uzbekistan. Архив Научных

Публикаций JSPI, 23 (1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.html/archive\\_jspi/article/view/1564](https://science.i-edu.uz/index.html/archive_jspi/article/view/1564)

12. Холмирзаев, Ж. Э., & Усмонов, Ю. К. (2020). ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКИХ СЕТЕЙ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ. In *ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ГИДРОМЕТЕОРОЛОГИИ, ВОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ГЕОЭКОЛОГИИ* (pp. 200-203).
13. Usmanov, M. (2020). Туризм–иктисодий ва ижтимоий географиянинг тадқиқод объекти сифатида. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-5.
14. Холиқулов, Ш., & Ибодуллаев, Қ. (2020). Жиззах вилоятида экологик туризмни ривожлантириш истиқболлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-7.
15. Gapparov, A. N. (2020). THE NEED FOR AND THE IMPORTANCE OF THE REGISTRATION OF THE POPULATION. In *ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 168-170).
16. Haydarova S. etal. MIRZACHO'L O'LKASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
17. Рахматуллаев, А., & Баратов, Х. (2020). Ғўбдин тоғи ландшафтларида чўлланиш жараёнини тажриба участкалари ёрдамида ўрганиш. *Архив Научных Публикаций JSPI*.